**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**
**TALABA VA O‘QUVCHILARNING**
**IJTIMOIY FAOLLIGINI OSHIRISH MARKAZI**
**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**
**UNIVERSITY OF BUSINESS AND SCIENCE**

# AXBOROT XATI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-fevraldagi **“Ikkinchi jahon urushida qozonilgan g‘alabaning 80 yilligi hamda Xotira va qadrlash kuniga tayyorgarlik ko‘rish va munosib nishonlash to‘g‘risida”**gi Qarori va **9-may - Xotira va qadrlash kuni** munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi talaba va o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish markazi tomonidan **“Vatan ravnaqi, tinchligi va himoyasi yo‘lidagi qahramonlik unutilmaydi"** mavzusadagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani o‘tkazilmoqda.

Mazkur anjumanning asosiy maqsadi – tarixiy xotirani saqlash, urush qatnashchilari va mehnat faxriylarining jasoratini yodga olish, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, shuningdek, ushbu yo‘nalishda olib borilayotgan ilmiy izlanishlarni muhokama qilishdan iboratdir.

Anjumanda oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari va talabalarning ishtiroki ko‘zda tutilgan.

**Anjuman quyidagi yo‘nalishlarda o‘tkaziladi:**

- 9-may – Xotira va qadrlash kunining tarixiy-ma’naviy ahamiyati;
- Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari jasoratining ilmiy-nazariy tahlili;
- O‘zbekistonda xotira madaniyatini shakllantirishda adabiyot, san’at va ommaviy axborot vositalarining o‘rni;
- Yoshlar ongida tarixiy xotirani mustahkamlashda ta’lim tizimining roli.

**Anjumanda quyidagi shakllarda ishtirok etish mumkin:**

- Ma’ruzachi sifatida;
- Ilmiy maqola muallifi sifatida;
- Tinglovchi (ishtirokchi) sifatida.

**Maqolalar quyidagi talablarga javob berishi lozim:**

- Maqolalar anjuman yoʻnalishlariga oid dolzarb mavzularda, ilmiy tahlil va tugallangan fikrlar asosida, amaliy tavsiyalar bilan taqdim etilishi lozim;
- Word matn redaktorida Times New Roman 14 pt oʻlchamli shrifti bilan 1,5 intervalda, qogʻoz oʻlchovi A4 210x197 mm; Matn maydoni yuqoridan va pastdan 2 sm, oʻngdan 1,5 sm, chapdan 3 sm.
- Maqola mavzusi bosh harflarda va qoraytirilgan holda yozilishi, keyingi qatordan muallifning ismi, familiyasi va sharifi, ish joyi, lavozimi va telefon raqami koʻrsatiladi.
- Maqola annotatsiyasi va kalit soʻzlar (kamida 7 ta) 3 tilda (oʻzbek, rus, ingliz) berilishi shart.
- Foydalanilgan adabiyotlar kamida 3-4 ta nomdagi adabiyotni tashkil etishi zarur.
- Maqolaga havola (snoska)lar [1,2...] koʻrinishida va maqola soʻngida “Foydalanilgan adabiyotlar” bandiga adabiyot sifatida ketma-ketlikda, tartib bilan havola raqami koʻrsatilishi kerak.
- Maqoladagi ma’lumot va dalillarning aniqligi, toʻgʻriligi va koʻchirmakashlikka yoʻl qoʻyilmaganligiga muallif javobgardir.

Anjumanda ishtirok etish istagini bildirganlar **2025-yil 5-mayga qadar** quyidagi aloqa raqami yoki Telegram orqali roʻyxatdan oʻtishlari soʻraladi:

**Murojaat uchun:** +99897-145-54-56 Yusubov Jaloliddin

**Eslatma**: Anjumanda taqdim etilgan ilmiy maqolalar alohida toʻplam holida nashr etilishi koʻzda tutilgan. Maqolalarni rasmiy talablarga muvofiq tayyorlash va belgilangan muddatgacha topshirish lozim. Anjumanda ishtirok etish mutlaqo bepul.

***Hurmat bilan, Tashkiliy qoʻmita***